

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 4-qism. Dekabr-2025**

**YOSH HARBIY XIZMATCHI OFITSERLARNING
MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA UNING
RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Matyakubov Elyor Rajapovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy muhitda muloqot madaniyatining ahamiyati va yosh harbiy ofitserlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek maqolada NATO va Rossiya armiyalarining yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Harbiy jamoadagi muhit, muloqot madaniyati, yosh ofitserning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, kommunikativ ko'nikmalar, stressga chidamlilik, jangovar qobiliyat, psixologik tayyorgarlik, motivatsiya, NATO va Rossiya tajribalari.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У МОЛОДЫХ
ВОЕННОСЛУЖАЩИХ-ОФИЦЕРОВ И ФАКТОРЫ,
ВЛИЯЮЩИЕ НА ЕЁ РАЗВИТИЕ**

Аннотация.

В данной статье рассмотрено значение культуры общения в военной среде и изучены социально-психологические особенности молодых офицеров. Также проанализирован опыт НАТО и российской армии в развитии коммуникативной культуры среди молодых офицеров.

Ключевые слова: военная среда, культура общения, социально-психологические особенности молодого офицера, коммуникативные навыки, стрессоустойчивость, боевая подготовленность, психологическая готовность, мотивация, опыт НАТО и России.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 4-qism. Dekabr-2025

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF COMMUNICATION CULTURE AMONG YOUNG MILITARY OFFICERS AND FACTORS INFLUENCING ITS DEVELOPMENT

Abstract: This article examines the significance of communication culture in the military environment and explores the socio-psychological characteristics of young officers. It also analyzes the experiences of NATO and the Russian army in developing communicative culture among young military officers.

Keywords: military environment, communication culture, socio-psychological characteristics of young officers, communication skills, stress resilience, combat readiness, psychological preparedness, motivation, NATO and Russian experience.

Kirish. Zamonaviy harbiy sharoitda jangovar va xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda ofitserlarning muloqot madaniyati eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Yosh harbiy xizmatchi ofitserlar nafaqat mutaxassis sifatida, balki bo'ysunuvchilari va hamkasblari bilan samarali aloqada bo'la oladigan yetakchi sifatida shakllanish bosqichida bo'ladilar. Shu munosabat bilan, muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular xizmat va jangovar sharoitlarning murakkabligida jamoaning ma'naviy-ruhiy holati, birlashuvi va psixologik barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Muloqot madaniyati va yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari sohasidagi tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan 2018-yil 16-noyabrda Shimoliy-G'arbiy harbiy okrugiga qarashli Nukus shahridagi harbiy qismga tashrifi chog'ida ofitserlar, kontrakt va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlar bilan uchrashuv chog'ida "Harbiylarimizning ham jismonan, ham bilim jihatidan barkamol bo'lishi uchun hamma sharoitlarni yaratyapmiz. Shuning uchun sizlar bir soat ham vaqtlaringizni behuda o'tkazmay, kitob o'qishingiz, chuqur bilim olishingiz, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni puxta o'rganib, yoshlarga o'rnak bo'lishingiz kerak"[1] degan o'giti yosh harbiy kadrlarni o'z ustida mukammal tarzda izlanishi va o'qishi natijasida muloqot madaniyatini yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Shuningdek, Davlatimiz rahbarining 2019-yil 17-oktabrda Janubiy-G‘arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli Denov tumanidagi harbiy qismga tashrifi chog‘ida “Harbiylar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak. Buning uchun shaxsiy tarkibning ma’naviy yetukligini, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish lozim. Siz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz vorislari ekanligingizni doim his qilib, shunga munosib xizmat qilsangiz, yoshlarimiz vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini sizlardan o‘rganadi”[2] deb harbiy xizmatchilarga aytgan so‘zlari yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanishini, chunki harbiy xizmatchilarning ma’naviy yetukligi va o‘zaro hurmati muloqotning asosiy poydevori ekanligini yaqqol dalilidir.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserning muloqotga kirishishdagi muhim bir jihati “Munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlari bilan ham muloqot yuritishdan iborat.[3] Chunki harbiy xizmatchi turli xil sharoitlarda jumladan, tinchlik va urush davrida, amaliy mashg‘ulotlarda muloqot bilan cheklanmasdan, qo‘l harakati, imo ishoralar bilan samarali harakat qilishi natijasida harbiy jamoaning oldiga qo‘ygan jangovar vazifa (operatsiya)ni muvaffaqiyatli bajarishga zamin yaratadi.

Ofitserlar (harbiy rahbarlar) tomonidan bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilari bilan o‘zaro muloqotga kirishishdagi asosiy jihati “Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o‘zaro ta’sir etuvchi ofitser (rahbar)ning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasi qo‘llanilishidir. Ofitser (rahbar)ning boshqa harbiy xizmatchilar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko‘rishga tayyor ekanligini to‘g‘ri, aniq, xatosiz anglay olishi zarur”[4]. Basharti, ofitserlar (harbiy rahbarlar) bo‘ysunuvidagi harbiy xizmatchilar bilan muloqotga kirishar ekan, ofitserning bergan buyrug‘i yoki topshirig‘i qo‘l ostidagi harbiy xizmatchida shubha uyg‘otmasligi kerak.

Harbiy sharoitda samarali muloqot madaniyati jamoaning psixologik barqarorligini oshirish va jangovar qobiliyatini mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi[5]. Bu esa, harbiy jamoaning jipsligini oshirishda hamda kutilayotgan har qanday buyruq (topshiriq)larni va vazifalarni samarali bajarishga imkon yaratadi.

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 4-qism. Dekabr-2025**

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlar bo'ysunuvidagi harbiy xizmatchilarga barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin taqiqlash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri – nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof sub'ektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaqlari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam hollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaqlar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir to'tadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u «jamoadan chetda», avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat – markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi – shuning uchun ham bu yerda «mening odamlarim», «mening ishim», «mening fikrim bo'yicha» kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoyilik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning «butun vujudini qamrab olgan». Shu sababdan bunday rahbar jamoadagi har bir xodimni uning xizmat faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha erdagi etakchilik roli, boshqarishi ko'proq qiziqtiradi va o'sha sifatlarga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi («temir rahbar»). Bunday jamoalarda tanqidiylik juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi[6].

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

NATO davlatlari armiyalarida yosh ofitserlarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun murabbiylik dasturlari va madaniyatlararo muloqot treninglarini muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Shuningdek, zamonaviy operatsion muhitning murakkabligi va tez o‘zgaruvchanligi harbiy kuchlardan, ayniqsa ko‘p millatli tuzilmalar tarkibida xizmat qiluvchilardan, moslashuvchanlik, samarali muloqot va faoliyat yuritish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bu esa an‘anaviy va noan‘anaviy jangovar harakatlarni uyg‘unlashtirib qo‘llay oladigan taxminiy raqiblarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sharoitda madaniyatlararo muloqot nafaqat har bir milliy kontingent doirasida ichki samaradorlik mezoni sifatida, balki tashqi omil - mintaqaviy hamkorlar, mahalliy aholi va boshqa ishtirokchilar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Bu omil ko‘p millatli harbiy kuchlarning keng ko‘lamli operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun zaruriy shartlardan biriga aylanmoqda.[7]

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ham NATO davlatlari armiyalari kabi “Ustoz-shogird” an‘anasidan keng miqyosda foydalanilmoqda hamda yangi ofitserlik lavozimiga tayinlangan yosh leytenantlar (ular qaysi oliy harbiy bilim yurti yoki oliygohni bitirib kelishidan qat’iy nazar) uch oylik sinov muddatlari belgilangan va shu oraliqda umumiy va maxsus majburiyatlarini ustozlari tomonidan o‘rgatilib boriladi hamda harbiy jamoada liderlik sifatlarini oshirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari oshirilib boriladi.

Harbiy faoliyatda yosh harbiy xizmatchi ofitserlarga ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, motivatsiya, emotsional intellekt va stressga chidamlilik, muloqot madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.[8] Binobarin, harbiy jamoaga kelgan har bir yosh ofitser bo‘linmada qanday muhit (barqaror yoki nobarqaror) borligini, to‘g‘ridan to‘g‘ri boshliqlarining qanday boshqaruv uslublardan foydalanishini bilmasligi, boshliqlarning hamda harbiy xizmatchilarning emotsional holatlarining rang barangligi kelgusida ular bilan faoliyat va muloqot olib borishda muloqot madaniyati muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy metodlar integratsiyalangan yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida yosh harbiy xizmatchi ofitserlar tanlandi. Ma’lumotlarni yig‘ish uchun quyidagi usullar ishlatildi:

Yosh ofitserlarning muloqot madaniyati va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar tarqatildi;

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Harbiy jamoalarda amaliy va nazariy mashg'ulotlar jarayonida yosh ofitserlarning muloqot uslublari va jamoaviy munosabatlari kuzatildi.

Ma'lumotlar tahlil qilindi va yosh harbiy xizmatchi ofitserlarga muloqot madaniyatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bu yondashuv kompleks tarzda yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillari va tashkiliy sharoitlarini aniqlash imkonini berdi.

Ushbu maqolada yosh ofitserlarda muloqot madaniyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni har tomonlama tahlil qilish hamda bu jarayon samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Harbiy muhitda, harbiy jamoa yuqori bosim va stressli vaziyatlarga duch kelganida, ofitserlarning yuqori darajadagi kommunikativ kompetentsiyasi quyidagilarga xizmat qiladi:

- harbiy jamoada ishonchli munosabatlarning shakllanishi;
- harbiy jamoaviy ruhning mustahkamlanishi;
- jamoada nizoli vaziyatlarning kamayishi;
- bo'linmaning umumiy jangovar qobiliyatining oshishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, harbiy muhitda muloqot madaniyati bo'linmaning muvaffaqiyatli faoliyatining asosi hisoblanadi, chunki:

- shaxsiy tarkibga axborotlarni aniq va o'z vaqtida yetkazishni ta'minlaydi;
- harbiy jamoada ishonch va o'zaro tushunishni shakllantirishga yordam beradi;
- bo'linmada harbiy xizmatchilar orasida mojarolar va stress holatlarining yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi;
- harbiy xizmatchilarning motivatsiyasi va jangovar ruhini qo'llab-quvvatlaydi.

Muloqot madaniyatining yuqori darajasi yosh ofitserlarga murakkab vazifalarni hal qilish, tezkor qarorlar qabul qilish va o'z harakatlari bilan boshqalarga namuna bo'lish imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida esa ofitserlarni (rahbarlarni) muloqot masalasi harbiy jamoaning jipslagining shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bugungi kunda harbiy ta'lim tizimini isloh qilish va zamonaviylashtirishda ofitserlar (boshliqlar)ni kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Yosh harbiy xizmatchi ofitser - bu yaqinda professional (nazariy) tayyorgarlik bosqichidan o'tgan va ofitser lavozimiga tayinlangan harbiy xizmatchi hisoblanadi. U lavozimga tayinlanganda quyidagi o'ziga xos muammolarga duch kelishi mumkin:

- jamoadagi komandir (boshliq)lar va harbiy xizmatchilarni muloqot madaniyatini va lavozim bo'yicha majburiyatlarni tez o'zlashtirish zarurati;

- ko'pincha tajribali bo'ysunuvchilar bilan birga jamoada o'z obro'sini shakllantirish;

- rasmiy maqom va shaxsiy sifatlar o'rtasida muvozanatni saqlash;

- yuqori psixologik bosim sharoitida rahbarlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kabi muammolarga duch keladi.

Shuningdek, yosh harbiy xizmatchi ofitserlar ko'pincha professional va shaxsiy rivojlanishning faol bosqichida bo'ladilar. Ular uchun quyidagi hususiyat xarakterlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

- jamoada o'zini ifoda etish va tan olinishga intilish;

- komandir (boshliqlar) va ofitserlardan kelgan baholarga yuqori sezgirlik;

- harbiy intizom va normalarga moslashish zarurati;

- bo'linmada liderlik sifatleri va hissiy barqarorlikni shakllantirish.

Ushbu hususiyatlarni tushunish va tezda anglab olish ofitserning muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserning muloqot madaniyatini samarali shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

I. Ichki omillar:

- ofitserning emotsional intellekt darajasi, stressga chidamliligi, o'zini boshqarish qobiliyatini tavsiflovchi shaxsiy xarakteristikallari;

- ofitserning professional rivojlanishi va shaxslararo munosabatlarga ichki qiziqish tuyg'ularini oshishining motivatsiyasi;

- ofitserning ta'lim va xizmat jarayonida shakllangan muloqot ko'nikmalari, tajriba va bilimlari.

II. Tashqi omillar:

- rahbarlik uslubi, korporativ an'analar, ma'naviy-ruhiy muhitning tashkiliy madaniyati;

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

- rahbarlik, jamoa qo‘llab-quvvatlashi, psixologik yordam mavjudligining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi;

- harbiy intizom talablari, muloqot etiketning ijtimoiy normalari va kutishlari.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlar xizmat davrining dastlabki bosqichida harbiy jamoada muloqot madaniyatini shakllantirishda quyidagi muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin:

stressli vaziyatlarda muloqot qilish amaliyoti va tajribasining yetishmasligi;

jamoada obro‘ va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishi;

lavozim majburiyati yuzasidan yuqori darajadagi xavotirlilik xissi va emotsional zo‘riqish;

shaxslararo va professional xarakterdagi mojarolar.

yosh ofitserning oliy harbiy bilim yurtida egallagan nazariy bilimlari bilan haqiqiy xizmatdagi vaziyatning bir biriga mos kelmasligi kabi muammolar va qiyinchiliklarga duch keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida dunyo mamlakatlarining harbiy muloqot sohasidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish va joriy etish bo‘yicha Oliy harbiy bilim yurtlari professor o‘qituvchilari tomonidan, shuningdek mustaqil izlanuvchi harbiy kadrlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarni muloqot madaniyatini shakllantirishda NATO davlatlari armiyalarida yosh ofitserlarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murabbiylik dasturlari, psixologik yordam va jamoani birlashtiruvchi tadbirlar keng qo‘llaniladi. Ko‘p millatli missiyalarda samarali hamkorlikni ta‘minlash uchun madaniyatlararo muloqot bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkaziladi.

Rossiyada muloqot madaniyatiga ta‘sir qiluvchi vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy intizom rivojlanishiga alohida e‘tibor beriladi. Ofitserning stressga chidamliligini oshirish va jamoaviy ruhni kuchaytirishga yo‘naltirilgan psixologik treninglar tashkil etiladi.

Shu o‘rinda zamonaviy texnologiyalar va aloqa vositalaridan samarali foydalanish harbiy muloqot samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi va sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar tahlili, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish natijasida harbiy muloqot sohasida keng imkoniyatlar yaratadi.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Bu jarayonda NATO va boshqa rivojlangan davlatlarning Qurolli Kuchlari bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish va qo'shma mashg'ulotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ilg'or tajribalarni o'rganish va joriy etish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini oshirishga, yosh harbiy xizmatchi ofitserlar hamda ularning qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar va ularning rahbarlari o'rtasidagi muloqot madaniyati samaradorligini yaxshilashga va umuman harbiy jamoada sog'lom muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Ko'plab yosh harbiy xizmatchi ofitserlar yuqori lavozimdagi yoki unvondagi tajribaga ega komandirlari (boshliqlari) oldida o'z fikr va his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishdan qo'rqishadi, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik (o'quvsizligi) oqibatida muloqot samaradorligini pasaytiradi. Natijada yosh ofitserning xizmat faoliyatida passivlik va o'ziga yopiq bo'lishga olib keladi. Ushbu salbiy holatlarni oldini olish uchun quyidagi kompleks yondashuvlar tavsiya etiladi:

bo'lajak ofitserlarni tayyorlash dasturlariga muloqot madaniyatini rivojlantirish modullarini kiritish;

kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ofitserlarni real sharoitlarga yaqin vaziyatlarda amaliy mashq qilishga e'tibor qaratish;

jamoaviy dinamikadan foydalangan holda jamoani birlashtirish va ishonchni oshirish;

yosh ofitserlarni murabbiylik va psixologik yordam ko'rsatish orqali zamonaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

barcha boshqaruv darajalarida ochiq va hurmatga asoslangan muloqotlarni rag'batlantirish.

XULOSA o'rnida, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning harbiy kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati samaradorligini oshirish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun muhim strategik vazifa ekanligini ta'kidlash lozim.

Bu vazifani hal qilish uchun, ofitserlarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy muloqot texnologiyalaridan foydalanish va muloqot standartlarini takomillashtirish bo'yicha kompleks choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rahbariyati tomonidan harbiy kasbiy faoliyatda muloqot samaradorligini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratmogda va bu sohada izchil islohotlarni amalga oshirmogda. Bu islohotlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini oshirishga, harbiy jamoada ijtimoiy

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

muhitni mustahkamlashga va bo‘linmada harbiy xizmatchilarni jangovar qobiliyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Hozirgi tahlikali davrda harbiy kasbiy faoliyatda muloqot samaradorligi harbiy jamoaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida bu sohada dunyoning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va harbiy xizmatchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayti 16.11.2018-y.
2. Sh.M.Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayti 17.10.2019-y
3. D.I.Ro‘ziyeva, A.M.Nazarovanning “Umumiy psixologiya” darsligi. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida chop etilgan. Toshkent - 2022-yil (336-339-varaqlar)
4. Z.Sh.Alimardonov, N.I.Xalilova “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida muloqot va muzokara psixologiyasi” darsligi. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida chop etilgan. Toshkent 2025-yil. 42-50 varaqlar.
5. Osiyo xalqaro universiteti magistrant A.Y.Hasanovning Iqro jurnali chop etilgan maqolasi 2025-yil 15-iyuldagi soni. 126-131-varaqlar.
6. Xalilova N.I., Amirova O.Q., “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” JHU darslik. T-2022. (410-415 bet).
7. “Knowledge Based” tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan “Intercultural Communication in Military Multinational Operations” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi. 2018-yil iyun. 98-103-varaqlar.
8. Taylorning “On Joint Leadership: The Importance of Communication” nomli maqola, Real Clear Defense saytida nashr etilgan. 2016-yil.